



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10 - dekabr 2021
Ma'qullandi: 15 - dekabr 2021
Chop etildi: 20 - dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Raqamli transformatsiya, zamonaviy infratuzilma, yagona axborot tizimi, statsionar boshqaruv markazi, onlayn efir, arxivlashtirish

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA

Mamatov Shuhratjon Dilshod o'g'li¹, Alimov Muxiddin Ilxomjon o'g'li²

¹O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
4-bosqich kursanti

²O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 4-
bosqich kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5797792>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini yanada rivojlantirish, sohani raqamlashtirish hamda yangi ko'rinishdagi tahdidlarning yangicha yechimlari yuzasidan taklif va xulosalar berilgan.

Dunyo mamlakatlari qatori O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari ham qator huquqbuzarlik va jinoyatlarga duch kelmoqda. Ushbu illatga qarshi muvaffaqiyatli kurashish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarning funksional vazifalari, imkoniyatlari va jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligini oshirish lozim. Ayni paytda, insonlarning hayoti, sog'lig'i, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki barcha davlat organlari va fuqarolarning asosiy vazifalari va burchlari bo'lishi lozim.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev: "Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini

so'zsiz bajarish, "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish bundan buyon faoliyatimning bosh mezoni bo'lib qoladi.

Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avval, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz.

Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimini, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni



tushunamiz”-deb bejiz ta’kidlab o’tmaganlar.^[1]

Insonning hayotini, sog’lig’ini nafaqat jinoyatdan asrash, balki shu bilan bir qatorda tabiiy va texnogen vaziyatlarda ham, yo’l transport hodisalaridan ham, tibbiy yordam ko’rsatishda ham asrash zarur hisoblanadi. Bir so’z bilan aytganda buning barchasi jamoat xavfsizligi ta’minlash hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligi tushunchasiga to’xtaladigan bo’lsak:

jamoat xavfsizligi — jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo’lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro’yobga chiqarilishini ta’minlaydi;

Jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim hisoblanadi.^[2]

Yurtimizda jamoat xavfsizligiga berilgan e’tiborning qanchalik yuqoridaligini 29-noyabr 2021-yilda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida ko’rishimiz mumkin. Ushbu konsepsiyaning 3-bandida Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari belgilangan. Xususan, 3-bandi 1-xatboshisida jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan, keng qamrovli maqsadli dasturlarni qabul qilish

va ijrosini ta’minlash; 10-xatboshisida aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong’in xavfsizligini ta’minlashda aholining ko’nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish; 12-xatboshisida esa jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish ko’zda tutilgan.^[2] Ushbu yo’nalishdan kelib chiqib, oliy ne’mat hisoblangan inson hayotini asrash borasida tez va sifatli ishlarni samarali amalga oshirish uchun yangi va yanada ortib borayotgan va o’z ko’rinishini o’zgartirayotgan tahdidlarni hal etish maqsadida jamoat xavfsizligida raqamli transformatsiyani joriy etish zarur.

O’zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasining 19-bandi 9-xatboshisida jamoat xavfsizligini ta’minlashda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish nazarda tutilgan.^[2]

Shuningdek, 2022-2025-yillarda O’zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini asosiy vazifalaridan biri sifatida jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatiga zamonaviy shakl va ish usullarini hamda ilg’or axborot texnologiyalarini keng joriy etish, jamoat xavfsizligi tizimini raqamlashtirishni 90 foizga etkazish orqali xizmat faoliyatida inson omilini minimallashtirish belgilandi.^[3] Ushbu muammolarni hal etish uchun istalgan joyda, istalgan vaqtda mavjud bo’ladigan, xavfsiz va ishonchli raqamli infratuzilmani yaratish, bundan tashqari huquqni muhofaza qiluvchi organlar o’rtasida tez va ishonchli axborot



almashuv tizimini kompleks rivojlantirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan ishonchli hamkorligini yanada mustahkamlash zarur.

2022-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasida jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, Milliy gvardiya va ichki ishlar organlaridan jamoat tartibini saqlashga jalb qilingan bo'linmalarining axborot tizimlari bazasida "E-jamoat havfsizligi" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga to'liq tatbiq etish belgilangan.^[3] Strategiyaning ushbu bandidan kelib chiqib, jamoat xavfsizligini ta'minlashda yagona axborot tizimini joriy etish va uni kerakli ma'lumotlar bilan boyituvchi hamda axborot tizimini shakllantirish va undan kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lgan statsionar va mobil boshqaruv markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu markaz o'z faoliyatini uzluksiz ravishda smenalar asosida olib boradi.

Vaqt va ovoragarchiliklarni oldini olish, huquqbuzarliklarni tezda aniqlab uni bartaraf etish maqsadida statsionar va mobil boshqaruv markazlariga nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organ hodim(harbiy xizmatchi)lari tomonidan, balki fuqarolar o'zlarinig telefonlariga o'rnatilgan mobil ilovalar yordamida ham jamoat xavfsizligini buzayotgan va unga tahdid solayotgan harakat yoki holat yuzasidan to'laqonli ma'lumot berish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu ilovalar fuqarolar bilan bir qatorda jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan patrullik guruhlar tomonidan

ham foydalanilishi mumkin. Bunda hodim(harbiy xizmatchi) o'zi aniqlagan holat yuzasidan dastlabki ma'lumotlarni statsionar markazga elektron tarzda yuboradi.

Bu dasturning afzalligi ma'lumotlarning yangiligi va to'liqligida ko'rinadi. Sababi ushbu mobil ilovadan foydalangan inson huquqbuzarlik sodir etilgan joyning aniq manzilini, foto va video yozuvlarini hamda to'g'ridan-to'g'ri onlayn efir ko'rinishida statsionar boshqaruv markaziga uzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Statsionar boshqaruv markazi tomonidan olingan ma'lumotlarga zudlik bilan aniqlik kiritilib ushbu hududda jamoat xavfsizligini saqlayotgan patrullik guruhlariga yo'naltiriladi. Patrul guruhi zudlik bilan hodisa sodir bo'lgan joyga yetib boradi va qonun doirasida kerakli ishlarni bajaradi. Zarur hollarda yordam sifatida voqea joyiga maxsus vositalar bilan ta'minlangan zaxira guruhlar ham yuborilishi mumkin.

Statsionar boshqaruv markazida navbatchi guruh tashkil etilgan bo'ladi. Uning vazifasi quyidagilardan iborat bo'ladi:

-kelib tushgan xabar va ma'lumotga aniqlik kiritadi;

-hodisa sodir bo'layotgan joyning aniq manzilini aniq manzilini aniqlaydi;

-joylardan uzatilayotgan turli xil ko'rinishdagi ma'lumotlarni qabul qiladi;

-kelib tushgan ma'lumotlarni o'sha hududda xizmat olib borayotgan patrullik guruhiga zudlik bilan yetkazadi va guruhni o'z vaqtida yetib borishini ta'minlaydi;

-hodisa sodir bo'lgan joydan uzatilayotgan onlayn efirlarni qabul qiladi va zarurat tug'ilsa real vaqtda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning onlayn efirga muammosiz qo'shilishini ta'minlaydi;



-olingan barcha ma'lumotlarni arxivlaydi, bu esa istalgan vaqtda ma'lumotlardan qayta foydalanish imkoniyatini beradi.

Bu imkoniyatlarning barchasi bir vaqtning o'zida fuqarolarning kundalik xizmatidan tortib favqulodda vaziyatlar, "faol taktik harakat"lar, shuningdek hodisalarni tahlil qilish va arxivlashni to'liq qo'llab-quvvatlaydi, ularni birlashtiradi va xavfsiz operatsiyalarni uzluksizligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ishlar jamoat xavfsizligi sohasida yuzaga kelayotgan yangi ko'rinishdagi tahdidlarni oldini olish hamda bartaraf etish imkoniyatini beradi. Raqamli transformatsiya jamoat xavfsizligini mutlaqo yangi bosqichga ko'taradi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, 2022-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida

jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasining 5-bobida Jamoat xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy asoslarini rivojlantirishga to'xtalib O'tilgan. Jumladan, 66-bandida Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligining jamoat xavfsizligini, shu jumladan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash faoliyatini amalga oshiruvchi bo'linmalarini zamonaviy maxsus texnika vositalari bilan ta'minlash ko'rsatib O'tilgan.^[3]

Yuqorida berilgan takliflar yuzasidan jamoat xavfsizligini ta'minlashning moddiy texnik bazasini yaratish uchun tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlik o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

Zero, har bir inson hayoti va uning qadriyat qimmatini oliy qadriyat hisoblanadi va u doimo qonun himoyasidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 06.11.2021 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga baG'ishlangan Oliy Majlis palatalari qO'shma majlisidagi nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi.
3. 2022-2025yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish Strategiyasi.